XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 30-avgust VI-70-112-3-45-K/24 G‘allaorol tumani

Xalq deputatlari G‘allaorol tuman kengashining 2020 yil 30 dekabrdagi № 94/21-6-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 20 moddasiga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi 48-son bilan tasdiqlangan “Shaxarlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish hamda ularning nomlarini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to‘plami, 2014 y., 10-son, 107-modda) ijrosini ta’minlash hamda G‘allaorol tumani O‘zbekiston mahalla fuqarolar yig‘inining 2024 yil 17 iyuldagi tuman hokimligiga 864/X-son va 2024 yil 26 iyuldagi 910/X-son bilan kirim qilingan xatlari hamda yig‘ilish bayonlarini, hududdagi aholi punklarida istiqomat qilayotgan aholining talab va istaklarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

q a r o r q i l a d i:

1. Xalq deputatlari G‘allaorol tuman kengashining 2020 yil 30 dekabrdagi “Lalmikor mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarilib, yangi O‘zbekiston mahalla fuqarolar yig‘ini tuzish to‘g‘risida”gi №-94/21-6-son qarori 2-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

2. Yangi tuzilgan O‘zbekiston mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga Xamza, Lalmikor, Navro‘z-2, A.Mamatkarimov va G‘o‘bdin QFY tarkibidagi Nurafshon (Bo‘ston) hamda Ko‘kdala aholi yashash punktlari berilsin.

Lalmikor mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibida Beruniy, U.Yusupov, Yoshlik, O‘zbekiston, Do‘stlik, A.Qodiriy, Navbaxor va Navro‘z-1 axoli yashash punktlari qoldirilsin.

3. Lalmikor MFY, O‘zbekiston MFY va G‘o‘bdin QFY raislari:

Manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda aholi punktlari toifalarini o‘zgartirilishi bilan bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy tadbirlarning amalga oshirilishini ta’minlasin;

Mahalla toifasiga kiritilgan aholi punktlari nomlarini “O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiqlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilasin.

4. Ushbu qarordan nusxa geografik ob’yektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasiga yuborilsin.

5. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashidan so‘ralsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish geografik ob’yektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



OQBOYEV JALOLITDIN JAMOLOVICH